GEFF II O‘zbekiston Loyihasi

Mamlakat:
O‘zbekiston

Loyiha raqami:
53775

Faoliyat sohasi:
Moliyaviy tashkilotlar

Xabarnoma turi:
Xusisiy

Ekologik toifasi:
FI

Tasdiqlanish sanasi:
12 Sentabr 2023 yil

Loyiha bosqichi:
Tasdiqlandi

Loyihaning qisqacha mazmuni Ingliz tilida chop etilgan sana:
2023-yil, 04-iyul

Loyiha tavsifi

Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish ("GEFF") II, O‘zbekiston, dasturining umumiy qiymati YTTBning 100 million AQSh dollarigacha bo‘lgan mablag‘idan iborat bo‘lib, o‘z ichiga Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot jamg‘armasining (TaiwanICDF) 10 million AQSh dollari miqdoridagi imtiyozli mablag‘larini oladi. Dastur doirasida dasturning muvofiqlik talablariga javob beruvchi ishtirokchi moliyaviy muassasalarga biznes va turar-joy sektorlarini moliyalashtirish uchun YTTBning Yashil iqtisodiyotga o‘tish (GET) yondashuviga muvofiq iqlimni yumshatish va moslashtirish choralari maqsadida kredit ajratiladi. Ushbu dastur 60 million AQSH dollarigacha bo‘lgan avvalgi GEFF O‘zbekiston dasturi natijalari va tajribasi asosida tayyorlangan. GEFF II O‘zbekiston Dasturi, Yashil Iqtisodiyotga O‘tishga (GET) mos investitsiyalar assortimentini kengaytiradi va diversifikatsiya qiladi, hamda yanada kengroq sohalarni qamrab oladi. Shuningdek, dastur doirasida birinchi marta gender nuqtayi-nazari yondashuvi qo‘llaniladi va iqlim risklarini boshqarishga e’tibor kuchaytiriladi.

Loyihaning maqsadlari

Ushbu dastur, O‘zbekistonda ekologik barqaror, past uglerodli va iqlimga chidamli iqtisodiyotga o‘tishni qo‘llab-quvvatlaydi, hamda tijorat, sanoat va turar-joy sektorlariga e’tiborni qaratgan holda iqlim o‘zgarishi ta’sirini yumshatish va ta’sirlarga moslashishga investitsiyalar kiritadi. Iqtisodiyotni uglerodni ko‘p iste’mol qiluvchi, iqlim o‘zgarishiga ta’sirchan va/yoki atrof muhitni ifloslantiruvchi usullarga bog‘lanib qolishining oldini oladi.

Bu yuqori samarali "yashil" texnologiyalarni moliyalashtirish uchun moliyaviy vositachilarni moliyalashtirish va nou-xau bilan ta'minlash, shuningdek, aholi, sotuvchilar, texnologiyalarni ishlab chiqaruvchilar va o‘rnatuvchilar, KO‘B va korporativ biznes kabi turli manfaatdor tomonlarning xabardorligini oshirish orqali amalga oshiriladi.

O‘tish davri ta’siri

O‘DT bahosi: : 75

Dastur “Yashil O‘DT” sifatiga ega bo‘lib, yashil iqtisodiyotni shakllantirishga hissa qo‘shish va moliyaviy mablag‘larni tijorat, sanoat va chakana moliya tarmoqlariga yashil texnologiyalarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirishga yordam qiladi. Dastur “Yashil O‘DT” sifatida doirasida moliyaviy tizimlarni yashillashtirish bilan bog‘liq qo‘shimcha yashil siyosat dialogini o‘z ichiga oladi.

Mijoz haqida ma’lumot

To‘qqiztagacha bo‘lgan muvofiqlik talablariga javob beradigan ishtirokchi moliyaviy muassasalar.

YTTBdan ajratiluvchi moliyaviy mablag‘

90,000,000 AQSh dollari

Loyihaning umumiy qiymati

90,000,000 AQSh dollari

Mavjud resusrlarga qo‘shimchaligi

YTTB, tijorat bozorida mavjud bo‘lmagan moliyalashtirish manbalarini, oqilona shartlar asosida taklif qiladi. Dastur tomonidan taklif etilayotgan innovatsion yashil moliya vositasi, iqlim va atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) standartlari va/yoki iqlim va ESG xatarlarini hisobga olgan holda, moliyaviy tuzilmaga birlashtiradi. Ishtirokchi moliyaviy muassasalar past uglerodli usulga o‘tish xavfini yumshatish va iqlim choralarini ko‘rish, masalan, past uglerodli o‘tish yo‘li bo‘ylab harakat qilish va iqlim risklarini boshqarish uchun ichki korporativ boshqaruvni yaxshilash uchun yordam oladi.

Ekologik va ijtimoiy xulosa

Moliyaviy muassasa (ESP 2019) toifasi. YTTBning amaldagi mijozlari bo‘lgan ishtirokchi moliyaviy muassasalar YTTBning 2019 yilda qabul qilingan Ekologik va ijtimoiy (EID)dasturi talablari va Moliyaviy muassasalarga (FI) nisbatan qo‘llaniladigan Ekologik va ijtimoiy (EI) talablar bilan tanish ekanligi kutiladi. Ushbu Dastur doirasida ishtirok etishi mumkin bo‘lgan har qanday yangi moliyaviy muassasa YTTBning Ekologik va ijtimoiy masalalar bo‘yicha boshqarmasiga Ekologik va ijtimoiy so‘rovnomani to‘ldirib topshirishi kutiladi. Dastur doirasida moliyalashtiriladigan benefitsiarlar ekologik, sog‘liq va xavfsizlik, shu bilan birgalikda, mehnat standartlari bo‘yicha milliy talablarga hamda qayta tiklanadigan energiya loyihalari uchun EI muvofiqlik mezonlariga, agar kerak bo‘lsa, GET siyosati bayonnomasiga muvofiq boshqa GET muvofiqlik mezonlariga rioya qilishlari kerak. Bu talablar YTTB tomonidan jalb qilingan Dastur konsultanti tomonidan ishtirokchi moliyaviy muassasalar yuzasidan tasdiqlanadi. Barcha ishtirokchi moliyaviy muassasalar YTTBning 2, 4 va 9-sonli talablariga rioya qilishlari, YTTBning korporativ kreditlar, KO‘B va mikrokreditlar bo‘yicha Ekologik va Ijtimoiy risklarini boshqarish (EI) tartib-qoidalarini qabul qilishlari va

amalga oshirishlari hamda YTTBga yillik ekologik va ijtimoiy hisobotlarni, shu jumladan, kichik loyihalar va ularning GET imtiyozlari bo‘yicha hisobotlarni taqdim etishlari shart. Dastur mablag‘lari hisobidan quyosh energiyasi bo‘yicha loyihalar moliyalashtirilishi mumkin. Bunday loyihalar "Quyosh energiyasi texnologiyalarini yetkazib berish tizimi risklarini boshqarish bo‘yicha tavsiya etilgan boshqaruv yondashuvi" (CS/FO/21-35), (CS/FO/21-35 (Add 2)) va ishlab chiqilgan har qanday keyingi yo‘riqnomaga muvofiq boshqariladi.

Texnik hamkorlik va Grantlarni moliyalashtirish

3,355 million evrogacha bo‘lgan texnik hamkorlik iqlimni yumshatish, moslashish va boshqa ekologik barqaror investitsiyalar bo‘yicha strategik nou-xauni mahalliy bozorga o‘tkazish, yuqori samarali texnologiyalar va xizmatlarni rag‘batlantirish va yashil iqtisodiyotga o‘tishni umumiy qo‘llab-quvvatlash uchun asosni qo‘llab-quvvatlaydi. Yuqori samarali texnologiyalarga investitsiyalar uchun talabga asoslangan, o‘zini-o‘zi barqaror bozorni yaratish, iqlimni moliyalashtirishdan genderga mos ravishda teng foydalanishni ta'minlash.

Kompaniyaning aloqa ma'lumotlari

Khurshida Uzakova
uzakovak@ebrd.com
+998781404400
www.ebrd.com

Amalga oshirish xulosasi

Loyihasining Xulosa Hujjati (PSD) oxirgi yangilangan sanasi

18 Iyul 2023

Tegishli/bog‘liq materiallar

- Translation: Project GEFF II Uzbekistan (Russian)
  Type: PDF, Published: 01.08.2023, Language: Russian

Ushbu Assoslar ostidagi kichik loyihalar uchun Loyihasining Xulosa Hujjati (PSD)

- GEFF II Uzbekistan - Ipoteka Bank
  Published: 07.08.2023
- GEFF II Uzbekistan - Ipak Yuli Bank Loan I
  Published: 19.10.2023
- GEFF II Uzbekistan - Hamkorbank Loan I
  Published: 10.10.2023

O‘tish davri nima

O‘tish davri ta’sirini baholash bo‘yicha YTTB yondashuvi haqidagi qo‘shimcha ma’lumotni mana bu havoladan olishingiz mumkin.

Biznes uchun imkoniyatlar

Biznes imkoniyatlari yoki xaridlar uchun mijoz kompaniya bilan bog‘laning.

YTTB bilan biznes imkoniyatlari uchun (xaridlar bilan bog‘liq bo‘lmagan) quyidagi manzilga murojaat qiling:

Tel: +44 20 7338 7168
Email: projectenquiries@ebrd.com

Davlat sektoridagi loyihalar bilan tanishish uchun EBRD Procurement qarang:

Tel: +44 20 7338 6794
Email: procurement@ebrd.com

Loyihalarda ishtirok etish uchun imkoniyatlar

Loyihada yoki xaridlarda ishtirok etish uchun mijoz kompaniyaga murojaat qiling.

YTTB bilan (xaridlarga oid bo‘lmagan masalalarda) hamkorlik qilish uchun quyidagi telefon yoki elektron pochta orqali bog‘laning:
Tel: +44 20 7338 7168
E-manzil: projectenquiries@ebrd.com

Davlat sektoridagi loyihalar uchun YTTB xaridlari sahifasiga o‘ting:
Tel: +44 20 7338 6794
E-manzil: procurement@ebrd.com

Umumiy ma’lumotlar

Aniq so‘rovlar YTTB so‘rovlar shaklidan foydalangan holda berilishi mumkin.

Ekologik va ijtimoiy siyosat (ESP)

YTTB o‘zining “ekologik jihatdan mas’ul va barqaror rivojlantirish” tashabbusini ilgari surishda Ekologik va ijtimoiy siyosat va uning tarkibiy qismi bo‘lgan loyiha talablari (PR) Bank loyihasini amalda qo‘llash tartibini belgilab beradi. ESP va PR tegishli milliy qonunchilik doirasida Bank mijozlarining keng jamoatchilikka axborot berishi va maslahatlashishini ta’minlash, shuningdek manfaatdor tomonlarning xavotirlari va shikoyatlarini, ayniqsa, ekologik va ijtimoiy muammolarni ko‘rib chiqish va hal qilishga yordam beradigan mexanizmni yaratishdagi aniq talablarni o‘z ichiga oladi. Loyihaning ekologik va ijtimoiy risklarni va ta’sirining mohiyati va ko‘lamidan kelib chiqqan holda, zarurat tug‘ilganda, YTTB o‘z mijozlaridan qo‘shimcha ravishda loyihalarning risklarni va ta’sirlari haqida ma’lumotni oshkor qilishni, shuningdek, manfaatdor tomonlar bilan batafsil fikr almashish va muammolar yuzasidan choralar ko‘rilishini talab qiladi.

Bu sohada YTTBning tajribasi bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumotlar ESPning quyidagi sahifasida keltirilgan.

Ish faoliyatidagi halollik va belgilangan me'yorlarga rioya qilish

YTTBning muvofiqlik nazorati boshqarmasi (OCCO) Bankda mas'uliyatli boshqaruvga ko'maklashish bilan birga Bank faoliyatining barcha jabhalarida eng yuqori standartlarda ish olib borilishini va barcha jarayonlar ilg'or xalqaro tajribalarga muvofiq bo'lishini ta'minlaydi. Bankning barcha mijozlari uchun ularning ish faoliyatidagi halolligini tekshirishdan maqsad, Bank loyihalari uchun qabul qilinishi mumkin bo'lmagan huquqiy va nufuzga oid risklarga yo'l qo'yilmaslikdan iborat. Bank nuqtai nazariga ko'ra, loyihani dastlabki baholash va tasdiqlash bosqichida muammoli jihatlarni aniqlash va ularni bartaraf qilish Bank faoliyati nufuziga putur yetkazmaslikning eng samarali vositasidir. OCCO ushbu profilaktika chora-tadbirlarida muhim ahamiyatga egaligi bilan birga investitsiya qilinganidan keyingi davrda Bankning nufuziga xavf soladigan risklarni nazorat qilishga yordam beradi.

OCCO, shuningdek, YTTB tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar doirasidagi firibgarlik, korrupsiya va lavozimni suiiste'mol qilish bo'yicha ma'lumotni tekshiruvchi mas'ul hisoblanadi. Agar kimningdir Bank ichida yoki undan tashqarida firibgarlik yoki korrupsiya holatlari kuzatilayotganligi haqida gumoni bo'lsa, u muvofiqlik nazorati boshqarmasi boshlig'iga bu holat haqida yozma tarzda compliance@ebrd.com electron manzili orqali xabar qilishi lozim. Barcha bildirilgan daliliy ma'lumotlar tegishli choralar ko'rish uchun OCCO tomonidan ko'rib chiqiladi. Barcha xabarlar, shu jumladan anonym tarzdagi xabarlar ham tekshirib chiqiladi. Bu turdagi xabarlar istalgan tilda, jumladan Bank faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatdagi rasmiy tilda tayyorlanishi mumkin. Bunday ma'lumotlar yaxshi niyatni ko'zlashi maqsadga muvofiqdir.

Axborotdan erkin foydalanish siyosati (AIP)

2020-yilning 1-yanvarida kuchga kirgan IAP YTTBning strategiyalari, siyosatlari va amaliyotlarini yaxshiroq tushunish va bilishga ko'maklashish uchun manfaatdor tomonlarga ma'lumotlarni ochiqlash bilan birga maslahatlashuvlar tartibini belgilab beradi. YTTB veb-saytidan qanday ma'lumotlar olish mumkinligini bilish uchun Axborotdan foydalanish siyosati sahifasiga o'ting.

Muayyan savollaringizni YTTBning ma'lumot so'rovi orqali yuborishingiz mumkin.

Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (IPAM)

Agar jismoniy yoki yuridik shaxslarning ekologik-ijtimoiy sohadagi yoki axborotni oshkor qilish borasidagi xavotirlarini (masalan, loyiha darajasida mijozlar tomonidan yaratilgan shikoyatlar mexanizmi yoki Bankning amaliyot boshqaruvi bilan bevosita o'zaro aloqa qilish orqali) qanoatlantirishga bo'lgan urinishlari samarasiz bo'lsa, ular YTTBning hisobdorlik mexanizmi ya'ni loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi yordamida (IPAM) o'zlarining o'sha xavotirlarini bildirishlari mumkin.

Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (IPAM), arizachilarning fikriga ko'ra, zarar yetkazishga ulgurgan yoki kelajakda zarar yetkazishi mumkin bo'lgan loyihaning muammolarini mustaqil ravishda baholaydi. Ushbu mexanizmning vazifalari quyidagilardan iborat: - ekologik-ijtimoiy va axborotni oshkor etish bo'yicha muammolarni hal qilish uchun loyiha ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rnatish va muloqotlarni olib borish; - Bank tomonidan ishlab chiqilgan Ekologik va ijtimoiy siyosat talablariga, shuningdek loyihaga oid tegishli Axborotdan erkin foydalanish siyosati qoidalariga rioya qilinishini baholash; - zarurat tug'ilganda, ushbu mezonlarga rioya qilmaslik holatlarini bartaraf etish, kelgusida Bank tomonidan ularni buzish holatlariga nisbatan ko'riladigan choralarini ko'zda tutish.

IPAM va uning vakolatlari haqida batafsil ma'lumot olish, ko'rib chiqilishi kerak bo'ladigan shikoyatlarni jo'natish uchun Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi vebsaytiga kirishingiz yoki tavsiyalar olish hamda IPAM haqida qo'shimcha ma'lumot olish va shikoyat jo'natish uchun ipam@ebrd.com electron pochta orqali biz bilan bog'lanishingiz mumkin.